

## KASB KASALLIKLARI VA ULARNING TURLARI

*Jumanazarova Zebuniso Shavkatovna*  
*Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat*  
*Salomatligi texnikumi o'qituvchisi*

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada kasbiy patologiyaning zamonaviy umumiy nazariy tomonlari bayon qilingan bo'lib bunda shuningdek, kasb kasalliklarining tasnifi, davolash va ularning oldini olishning umumiy prinsiplari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** kasb kasalligi, profilaktika, kimyoviy omillar, biologik omillar, lazer nurlar, skaliroz, kesson.

Kasbiy zararli omillar ishlab chiqarish jarayonida uning texnologiyasi va asbob uskunalari bilan (kimyoviy toksik moddalar, ishlab chiqarish chang, nurlanish manbalari, shovqin va vibratsiya, past va yuqori atmosfera bosimi, past va yuqori harorat, infraqizil, ultratovush, elektromagnit, lazer nurlanishlar va boshqalar) va shuningdek, mehnat jarayoni, uni tashkil qilish og'irligi va davomiyligi bilan (asab tizimi, ko'rish a'zosi, eshitish a'zosi, ovoz boylamlarining zo'riqishi, tez-tez bir xilda bajariladigan harakatlar, ma'lum bir guruhdagi mushaklarning zo'riqishi, tananing majburiy holati va boshqalar) bog'liqdir. Sanoatda va qishloq xo'jaligida yangi kimyoviy moddalarning qo'llanilishi yangi kasbiy zararli omillarning yangi profilaktik chora-tadbirlarini o'rganishni taqazo etadi.

Zararli omillarning ta'sirini sanitar-gigiyenik chora-tadbirlar yordamida himoyalash natijasida kasalliklar kelib chiqishining oldini olish mumkin. Texnologik progress, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomotizatsiyalash, asbobuskunalarni modernizatsiyalash, zararli omillarni yo'qotish yoki ularni xavfsiz darajagacha pasaytirish mumkin. Profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqarish faoliyati jarayonida inson sezishi mumkin bo'lgan ta'sirlarni ijtimoiy va ekologik omillarni hisobga olgan holda butunligacha o'rganib chiqish zarur. Kasbiy omillar kasb kasalliklarining rivojlanishiga sabab bo'lishidan tashqari mehnat faoliyati bilan etiologik bog'liq bo'lmagan yurak qon tomir va asab tizimining, nafas olish a'zolari va meda ichak yo'lining, qon hosil qilish a'zolari, tayanch harakat apparati, teri va boshqa kasalliklarning kechishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Kasbiy patologiya boshqa kilinik fanlardan farqli o'laroq, ijtimoiy ahamiyatga ega, chunki zararli kasbiy omillar ta'sirida ishlovchining sog'lig'ida o'zgarishlar aniqlansa, uning sog'lig'iga yetkazilgan zararni moddiy kompensatsiya ajratilishi zarur.

Kasbiy patologiyaning sanab o'tilgan asosiy me'zonlari uning kilinik tibbiyotning murakkab soxalaridan biri ekanligini ko'rsatadi va kasb kasalliklarining

diagnostikasini obyektivlashtirish uchun o'ziga xos usullarni ishlab chiqish va foydalanishni talab etadi. Kasb kasalliklari 2ta guruhga bo'linadi: 1-guruhga faqat kasb kasalliklarining o'zi kiradi. Bunda hastaliklarni keltirib chiqaradigan omillar asosiy o'rin egallaydi. Bu kasalliklar faqat ishlab chiqarish sharoitlarida rivojlanadi va o'ziga xos klinik belgilar bilan ifodalanadi. Tebranish asorati sababli yuz beradigan, silikoz, benzol va qo'rg'oshin tasiridan kelib chiqadigan surunkali zaxarlanish hollari shular qatoriga kiradi. 2-guruhga o'ziga xos bo'lmagan (nospetsifik) kasb kasalliklari kiradi. Ma'lum bir zararli omilga ega bo'lgan ishlab chiqarish sharoitlarida vujudga kelgan umumiy xastaliklar shular jumlasidandir. Bronxial astma, sil kasalligi, enfisema va shu kabilar ham shu guruhga mansub.

Kasb kasalliklarini aniqlashda quyidagi qonun qoidalarga amal qilish zarur bo'ladi:

1. Bemorni kasbini to'liq tahlil qilish va mehnat faoliyati jarayonida ishchiga zararli omillarning nechog'li tasir ko'rsatishini, ularni ta'sir qilish muddati, shuningdek ilgari boshdan kechirgan umumiy yoki kasbga oid kasalliklarni aniqlash kerak.

2. Bemorning bajaradigan ishining va mehnat sharoitlarining sanitariya-gigiyenik tavsifi bilan tanishish lozim.

3. Bemordan olingan ma'lumotlar rasmiy hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

4. Maskur kasb kasalligida kuzatiladigan, lekin umumiy kasalliklarda ham uchrab turadigan nospetsifik klinik belgilarni hisobga olib (masalan, qo'rg'oshin va organik moddalar tasiridan kelib chiqqan kasalliklarga alohida kamqonlik alomatlari va boshqalar).

5. Ayrim kimyoviy moddalarga nisbatan organizmning o'ziga xos reaktivligini teri orqali aniqlash.

6. Patologik jarayonning dinamik rivojlanishini o'rganish, ya'ni zararli omilning ta'siri to'xtatilgandan keyin g'ayritabiiy yo'qolish va boshqalar. Tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq kasb kasalliklari 7 guruhga ajratiladi:

1. Kimyoviy omillar tasirida yuzaga keladigan kasalliklar: ta'siri turli tropikka ega o'tkir surunkali intoksikatsiyalar.

2. Sanoat aerazolari ta'sirida yuzaga keladigan kasalliklar: pnevmokoniozlar, changli bronxitlar, rinofaringolaringitlar, allergiyalar.

3. Fizik omillar tasirida yuzaga keladigan kasalliklar: kesson kasalligi, o'tkir, surunkali issiq urishi, shovqin, vibratsion kasallik.

4. Alohida a'zolar va tizimlarning ortiqcha zo'riqishi va ortiqcha keskinlikda ishlashi bilan bog'liq kasalliklar: koordinatorli nevrozlar (sut sog'uvchilarda, skripkachilarda, linotipistlarda) radikulitlar, artrozlar, bursitlar.

5. Biologik omillar tasiriga bog'liq kasalliklar: infeksiyon va parazitarni kasalliklar.

6. Allergik kasalliklar: kon'yuktivitlar, rinitlar, bronxial astma, dermatitlar, egzemalar va boshqalar.

7. Yangi hosil bo'lgan o'smalar: kelib chiqishi fizik kimyoviy tabiatga ega konsiragenlar bilan ishlaganda yuzaga kelgan xavfli o'smalar. Mehnat sharoitlarining yaxshilanishi, sog'lomlashtiruvchi tibbiy chora-tadbirlarning o'tkazilishi, sog'lom tarzida yashash prinsiplarining hayotga tadbiq qilinishi natijasida kasb kasalliklarining ko'pchilik shakllari (silikoz va boshqa pnevmakoniozlar, pestitsidlarda o'tkir zaharlanishlar, teri kasbiy kasalliklari va boshqalarning) oldini olishga muvofiq bo'lindi. Kasb kasalliklarining profilaksiyasi mehnat shartlarini sog'lomlashtirishning muhandislik-texnik vositalarini ishlab chiqishda ishtirok etish, gigiyenik normativlar, boshqa sanitar qonunchilikni ishlab chiqish, mehnatni ilmiy tashkil qilish, oldini oluvchi joriy sanitariya nazorat, mehnat jamoasi o'rtasida sanitariya-ta'lim va profilaktik ishlar (sanitariya qoidalariga, xavfsizlik texnik qoidalariga, maxsus kiyimdan foydalanishga, individual himoya vositalaridan foydalanishga, davolash-profilaktika ovqatlanishiga, suyuqlik rejimiga o'tishiga) qat'iy rioya qilish kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. K.SH. Boltaboyeva, SH.T Iskandarova, N.S. Tadjibayeva, M.I. Xasanova, Sanoat gigiyenasi va sanitariyasi, Farmaseftikasi va tibbiyot oliy Oquv yurtlari talabalari uchun darslik, T., 2010 y
2. Nurmuxammedova M.X., Nazarova X.A., Gigiyena T., 2007 y
3. Uayt V. "Технология чистых помещений" - Asinkov, 2003 y
4. SH.K. Maxmudova "Kasb kasalliklari" T., 2011 y.

#### **Internet saytlari.**

1. <https://uz.m.wikipedia.org>
2. <https://library.sammi.uz>
3. <https://hozir.org>